



**DO'STIM  
SENGA  
JANNATNI  
TILAYMAN**

Do'stim shu yolg'onlaring oxiratda  
tarozingni og'ir qilmasin:

**"...Va yolg'on so'zdan yiroq bo'ling".**

(Haj,30)

Abdurahmon ibn Abu Bakra roziyallohu anhumodan, u otasidan: **"Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlarida edik, shunda ul zot: "Gunohlarning eng kattalari haqida sizlarga xabar beraymi?, deb uch marta aytdilar: ..." Ogoh bo'linglar, yolg'on guvohlik berish va yolg'on gapirosh", deb takrorlayverdilar, hattoki biz: "Qaniydi to'xtatsalar edi", deb qoldik"**

(Imom Buxoriy rivoyati)

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **«Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Kim yolg'oni tark qilsa – Holbuki, u botildir – unga jannatning sahnida bir uy quriladi...»**

(Termiziy, Abu Dovud rivoyati)

manfaatli

Do'stim har kuni 5 mahal  
namoz o'qish farz:

**"...Albatta namoz mo'minlarga  
vaqtida farz qilingandir."**

(Niso,103)

Do'stim tushunding-a?  
Seni shu holatga tushishingni  
xohlamayman:

**"Sizlarni do'zaxga nima kiritdi?  
Ular:" Namoz o'qiydiganlardan  
bo'limgan edik".**

(Mudassir,42-43)

Do'stim besh muchaling sog',  
nega ro'za tutmaysan?!

**«Ey iymon keltirganlar! Sizlardan  
avvalgilarga farz qilinganidek,  
sizlarga ham ro'za farz qilindi.  
Shoyadki, taqvo qilsangiz...”**

(Baqara,183)

Aks holda bunday holatga tushishingni  
aslo xohlamayman:

**“Kim Allohga va Uning Rasuliga isyon  
qilsa va Uning chegarasidan tajovuz  
qilsa, uni abadiy qolish uchun  
do'zaxga kiritadir. Va unga xorlovchi  
azob bordir”**

(Niso,14)

Do'stim harom bo'lgan  
sigaretingni tashla:

**"O'zingizni halokatga  
duchor qilmang"**

(Baqara,195)

**"O'zingizni o'zingiz o'ldirmang"**

(Niso,29)

**Rasululloh sollallohu alayhi vasallam  
shunday deydilar: "O'zga ham, o'zgaga  
ham zarar berish yo'q"**

(Imom Molik "Muvatto"da (1494),  
Hokim "Mustadrak"da rivoyat qilishgan)

manfaatli

Do'stim benikoh sevishib yurishdan  
saqlan, zinodan saqlan:

**"Va zinoga yaqinlashmanglar.  
Albatta, u foxisha ish va  
yomon yo'ldir."**

(Isro,32)

Abu Umoma roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

**"Nomahramlar bilan holi qolishdan ehtiyyot bo'lgin.  
Jonim qo'lida bo'lgan Zotga qasamki, biror erkak nomahram ayol bilan holi qolsa, ular orasiga shayton kiradi.  
Bir erkak o'z yelkasini nomahram ayolning yelkasiga tekkazganidan ko'ra loy yoki balchiqqa qorilib yotgan cho'chqani quchoqlagani yaxshiroq", dedilar.**

(Tabaroniy rivoyati)

manfaatli

Do'stim harom bo'lgan  
mast qiluvchi ichimliklaringni tashla:

**"Alloh taolo dedi: "Ey mo'minlar, aroq (mast qila  
digan ichimlik ichish), qimor (o'ynash),  
butsanamlar (ya'ni, ularga sig'inish) va (fol  
ochadigan) cho'plar shayton amalidan bo'lgan  
harom ishdir. Bas, ularning har biridan uzoq  
bo'lingiz, shoyad najot topsangiz!"**

(Moida, 90)

Ibn Umar (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi:  
«Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi  
vasallam): **"Alloh xamrni, uning ichuvchisini, quyib  
beruvchisini, sotuvchisini, sotib oluvchisini,  
siquvchisini, siqtiruvchisini, ko'taruvchisini va  
ko'tartiruvchisini la'natladi"**, dedilar»

(Imom Abu Dovud va Imom Termiziy rivoyati)

Xamr - mast qiluvchi ichimlik

manfaatli

**Do'stim og'zingga e'tiborli bo'l zero:**

**"Ey mo'minlar, (sizlardan bo'lgan) bir qavm (boshqa)  
bir (mo'min) qavm ustidan masxara qilib kulmasin –  
ehtimolki, (o'sha masxara qilingan qavm) ulardan  
yaxshiroq bo'lsalar"**

(Hujurot,11)

Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

**«Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Musulmonni  
so'kish fosiqlikdir. U bilan urishish kufrdir»,dedilar»**

Buxoriy, Muslim va Termiziy rivoyatlari

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan  
hadis: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

**"...Kishi o'z muslim birodarini haqorat etishi uning  
yomonligiga (yomonlik qilayotganiga) kifoyadir.  
Har bir musulmonga boshqa musulmonning qoni,  
moli va obro'si haromdir", deb aytdilar".**

(Muslim rivoyati)

manfaatli

**Do'stim senga Jannatni tilayman...:**

**"Zero, oxirat ham, dunyo ham  
Allohnikidir."**

(Najm,25)

**"Va albatta, oxirat sen uchun bu  
dunyodan yaxshidir."**

(Zuhu,4)

**"Ey, iymon keltirganlar! Islomga to'lig'icha  
kiring. Va shaytonning izidan  
ergashmang. Albatta, u sizga ochiq  
dushmandir".**

(Baqara,208)

**"... Albatta, taqvodorlar uchun go'zal  
oqibat. Ular uchun eshiklari ochiq adn  
jannatlari bordir".**

(Sod,49-50)

## Do'stim haromdan yeishni bas qil:

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi,  
Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:

**"Haromdan ozuqalangan go'sht-badan  
jannatga kirmaydi, unga jahannam loyiqdir".**

(Imom Ahmad rivoyati)

Ibbon ibn Abu Affosh roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Anas roziyallohu anhu aytadilar: "**Nabiy sollallohu alayhi  
vasallamga: "Ey Allohning Rasuli, meni duosi  
qabul bo'ladiganlardan qilib qo'ying"**", dedim.  
U zot: "**Ey Anas, kasbingni pok qilgin, duoing  
qabul bo'lur. Chunki bir odam og'ziga bir  
luqma haromni solsa, qirq kungacha duosi  
ijobat bo'lmaydi**", dedilar"

(Imom Buxoriy, Imom Muslim,  
Imom Termiziy va Imom Nasoiy rivoyatlari)